

UY-RO'ZG'OR BUYUMLARIDA ISHLATILADIGAN JO'VANING TEKNOLOGIYASI VA YASASH STRUKTURASI

Naxalboyev Nazarbek Fazliddin o'g'li

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti o'qituvchisi

Ro'ziqulov Diyor Ilhom o'g'li

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Maqolada talabalarni bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, hunar o'rgatish, bugungi kunda texnologiya yo'nalishda o'qiyotgan talabalarni, yo'ochlar, yog'ochlarga ishlov berish dastgohlari va ulardan foydalanib buyumlar tayyorlash haqida ma'lumot berish. TSD-120 tokarlik stanogi Jo'va yasash haqida ma'lumot va ishlash qoidalari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: TSD-120, iskana, yog'och, xomaki ishlov berish, zagatovka, yo'nish, xafsizlik texnikasi

Xalq hunarmandchiligi va uning tarixi xalqlarning, jumladan, o'zbek xalqining paydo bo'lishi, shakllanishi, tarixiy rivojlanishi hamda milliy qadriyatlarini ifodalovchi soha sifatida xizmat qila oladigan ma'naviy, moddiy va madaniy meros hisoblanadi. Xalq hunarmandchiligi 100 dan ziyod tarmoqqa ega bo'lib, o'zining ko'plab xususiyatlari – amaliyligi, ijodiyliqi, milliyliqi, mahalliy xomashyolarni topish va ularga ishlov berishning qulayligi, o'g'il va qiz bolalar mehnatining o'ziga xosligi, shahar va qishloq maktabini uyg'unlashtira olishi, asosiy hollarda murakkab qurilma, asbob-uskuna va dastgohlarni talab qilmasligi bilan ajralib turadi. Qadimdan otabobolarimiz yog'och o'ymakorligi me'morchilik bilan bir qatorda uy-ro'zg'or va turli xil buyumlarga bezak berishda ham keng qo'llanilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2018 yilning 5-sentabrida qabul qilingan "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha chora tadbirlar to'g'risidagi 5388 sonli farmon hamda "Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora tadbirlari to'g'risida" PK-3931-sonli qaror va farmonlarida pedagogik xodimlarning qadr-qimmatini, ularning moddiy va ma'naviy va ijtimoiy himoyasini kuchaytirishga qaratilgan qator vazifalar belgilab berildi. xalq ta'limi tizimida sifat o'zgarishlarni amalga oshirish hamda pedagog xodimlarning mahoratini oshirishga qaratilgan beqiyos imkoniyatlar yaratdi. Yoshlar tarbiyasida hunar o'rganishning ta'siri halol mehnat, axloqiy tarbiya, insonlar o'rtasida do'stlik aloqalari, turmush darajasini taraqqiy ettirishga yaxshi sifatlarni namoyon qiladi. Kasb va hunar yoshlar vaqtini behuda o'tishiga yo'l qo'ymaydi.


Texnologiya fanni o'zlashtirish davomida turli xomashyo materiallaridan foydalanish,

ularni amalda qo'llash, ishlov berishga oid bilimlaringizni boyitasiz. Ular zamonaviy ishlab chiqarishning bozor munosabatlariga asoslangan talablari asosida kasbiy tayyorgarligingizni oshirishga va jismoniy mehnat turlaridan samarali foydalanishga, bu boradagi ko'nikma va malakangizni oshirishga xizmat qiladi. Tabiiyki, bularning barchasi fan yuzasidan o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalaringizni amaliyotda to'g'ri qo'llay bilishning asosi sanaladi

Yog'och materiallariga badiiy ishlov berishda ishlatiladigan yog'och materiallar yaxshi qurigan bo'lsa, tob tashlab buralish, qurish natijasida darz (yorilish) ketish hollari yuz bermaydi.

Jo'va — oshxona anjomi hisoblanadi, u asosan xamirni yoyish uchun mo'ljallangan. U silindrsimon yoki vereten shaklida bo'ladi.


Yog'ochga ishlov beruvchi tokarlik stanoklari yordamida yog'och ateriallardan har xil aylanish sirtlarga ega bo'lgan detallar, shakldor buyumlar tayyorlanadi. STD – 120 tipidagi yog'ochga ishlov beruvchi tokarlik stanogining aso siy uzellari stanina, oldingi babka, ketingi babka, tirkak, o'yuvchi mos lama bo'lib, uning yordamida o'yish-teshish ishlari bajariladi.



STD–120 tokarlik stanogining tuzilishi:

1 – asos; 2 – elektr dvigateli; 3 – stanina; 4 – tasmali uzatmaning to'sig'i;
5 – magnitli ishga tushirgich; 6 – alohida yoritkich; 7 – oldingi babka; 8 – plan shaybali shpindel; 9 – tirkak; 10 – ketingi babka; 11 – shaffof himoya ekrani.

Tokarlik stanogida zagotovkalar patron, planshayba va trezubes yordamida o'rnatiladi




2-rasm. Tokarlik stanogida zagotovkalarini oʻrnatish usullari:

a) patronga oʻrnatish; b) trezubesga oʻrnatish; d) planshaybaga oʻrnatish.

Tirgak hamma vaqt markazga moslanib, ishlanadigan yogʻochga yaqin oʻrnatiladi. Ishlov berish jarayonida tirgak va yogʻoch orasidagi masofa ortib boradi, shuning uchun vaqti-vaqti bilan tirgak zagotovkaga yaqinlashtirib boriladi.

Silindr shaklidagi zagotovkalariga ishlov berish Silindr shaklidagi zagotovkalariga ishlov berish xomaki va oxirgi ishlov berishdan iborat. Yogʻoch ishlanadigan tokarlik stanoklarida yoʻnish va qirqish ishlari maxsus tokarlik iskanalari yordamida bajariladi



3-rasm. Tokarlik iskanalari:

a) yoʻnuvchi (reyer); b) qirquvchi (mayzel).

Joʻva yasashni oʻrganamiz

Jihozlar kerak boʻladi.



Texnologik xarita, oʻlchash va rejalash asboblari, asbob-uskuna va moslamalar (arra, randa, iskana, egov, jilvir qogʻoz va boshqalar), yogʻoch yelimi, xavfsizlik texnikasi qoidalari, namunalar.

Ishni bajarish tartibi

Joʻvani hosil qilish berilgan texnologik xarita asosida amalga oshadi.

Joʻva hosil qilishning texnologik xaritasi

T/r	Ish ketma-ketligi	Ish eskizi	Asboblari		Jihoz va moslamalar
			Oʻlchov va rejalash	Ish	
1	Mos yogʻoch tanlash va $l=40$ cm uzunlikdagi radiusi 5cm boʻlgan oʻlcham olish		chizgʻich, qalam	arra	duradgorlik dastgohi

2	G'olaning uzunligini rostlash va uni stanokga o'rnatish, Jo'vaning qo'llari o'lchab olinadi va inskanada yo'niladi o'chamlari qo'llari 10 sm, tanasi 20sm		shtangiserkul	iskana	TSD-120 stanogi
3	Jo'vani burchaklarini iskana yordamida faska qilinadi			iskana	TSD-120 stanogi
4	Jilvir qog'oz bilan yuzi silliqlanadi			iskana	TSD-120 stanogi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev SH. Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. – T.: “O'qituvchi” MU MCHJ, 2021. – 184 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori PQ-279-son 2022yil
3. Sharipov SH. S. va boshqalar. Mehnat ta'limi: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. – T.: “Sharq”, 2012.
4. Bo'riyev H., Abdurahmonov L., Jononbekova A. Gulchilik. – T.: “Mehnat”, 1999.
5. <http://www.uzedu.uz> –
6. www.pedagog.uz